

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-soni)**



**FİLOLOGİYA
PHILOLOGY**

TILSHUNOSLIKDA SPORT TERMINOLOGIK BIRLIKLARINING NAZARIY ASOSLARI

*Abdumajitov Xurshid Alisher o‘g‘li,
O‘zDJTU o‘qituvchisi
Email: khurshidabdumajitov@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida sport terminologiyasining ahamiyati ko‘rsatiladi. Muallif, terminlarning shakllanishi va ularning ilmiy aloqalarda qo‘llanilishi zarurligini ta’kidlaydi. Sport terminologiyasi, tilshunoslikda turli termin tizimlarini o‘rganish va ularning o‘zaro aloqalarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar uchun muhimdir. Maqolada “terminologiya” tushunchasi va uning sport sohasidagi o‘rni, shuningdek, kasbga yo‘naltirilgan tillar (ESP) orqali terminlarning ahamiyati yoritiladi. Muallif, terminologiyaning sistemaliligi va uning lingvistik, semantik va strukturaviy funksiyalarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratadi.

Kalit so‘zlar: sport terminologiyasi, kasbga yo‘naltirilgan tillar (ESP), semantik, strukturaviy, lingvistik funksiyalar, terminlar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СПОРТИВНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация: В статье рассматривается важность спортивной терминологии в процессе изучения иностранных языков. Автор подчеркивает необходимость формирования терминов и их применения в научных коммуникациях. Спортивная терминология является важной для научных исследований, направленных на изучение различных терминологических систем и их взаимосвязей в лингвистике. В статье раскрываются понятие "терминология" и её роль в спортивной сфере, а также значимость терминов через профессиональные языки (ESP). Автор уделяет особое внимание системности терминологии, а также её лингвистическим, семантическим и структурным функциям.

Ключевые слова: спортивная терминология, профессиональные языки (ESP), семантические, структурные, лингвистические функции, термины.

THEORETICAL FEATURES OF SPORT TERMINOLOGICAL UNITS IN LINGUISTICS

Abstract: The article shows the importance of sports terminology in learning foreign languages. The author emphasises the need for the formation of terms and their use in scientific communication. Sports terminology is important for scientific research aimed at studying various terminological systems in linguistics and identifying their interrelationships. The article sheds light on the concept of “terminology” and its role in the field of sports, as well as the importance of terms through profession-oriented languages (ESP). The author pays special attention to the systematic nature of terminology and the study of its linguistic, semantic and structural functions.

Keywords: sports terminology, professional languages (ESP), semantic, structural, linguistic functions, terms

KIRISH

So‘nggi yillarda xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan talab ortib borishi bejiz emas. Xorijiy tillarni egallash bir qancha soha mutaxassislarini kasbiy qobiliyatlarini shakllantirishda terminlarni o‘zlashtirish talab etiladi. Shu jihatdan xorijiy tilni jamiyat bilan bog‘liqligi ularning globallashuv jarayonlardagi o‘zgarishlarga duch kelishi natijasida sohaga yangi termin leksemalarning kirib kelishi tilshunoslik sohasida tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

Tilshunoslik fani turli termin tizimlarini o‘rganish bilan cheklanmay, balki yaqin va farqli termin tizimlari o‘rtasidagi munosabatlarni ham o‘rganishga qaratiladi. Bunda terminlarning ta’rifini rivojlantirish, terminologik lug‘atlarni yaxshilash, ilmiy aloqalar va ishlab chiqarish jarayonlarida termin va iboralardan samarali foydalanishni ta’minalash imkonini beradi. Shuningdek, terminlarning shakllanishi va qo‘llanilishini tartibga soluvchi asosli tavsiyalar olish imkonini yaratadi. Bu esa sport doirasidagi termin, atama, ibora va tushunchalarni, sport terminologik apparatining o‘ziga xos lingvistik tuzilishi va faoliyatini belgilash zarurligini ko‘rsatadi.

ASOSIY QISM

Tilshunoslikda “terminologiya” tushunchasi soha yoki jamiyatda inson faoliyati davomida uchraydigan terminlar yig‘indisi hisoblanadi. Xorijiy tillarni o‘qitish nazariyasi sohaga yo‘naltirilgan ingliz tili (ESP) orqali kasbiy faoliyat va o‘qitish g‘oyasini nazarda tutadi.

A.I.Kamarova nazlida: Sohaga yonaltirilgan chet tili – zamonaviy, rivojlangan milliy tillarning funksional turlari bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarning maxsus sohalarida ishlatiladi. Ixtisoslashmagan tillar esa, tillarning quyi darajalarida, ya’ni kundalik hayotdagi oilaviy munosabatlarda va odamlarning dam olish faoliyatida qo‘llaniladi (4). Bu borada, L. Hoffmanning ta’rificha, kasbga yo‘naltirilgan til (ESP) bu yarim avtonom, umumiy tilga asoslangan va undan tashkil topgan murakkab semiotik tizimdir. Kasbiy tildan foydalanish kasbiy til va biror soha mutaxassislar muloqoti bilan cheklanmaganligiga bog‘liq (3).

ESP tarkibiga terminlar, professionalizm, soha jargoni, soha frazeologik birliklari va nomenklatura belgilarini kiritish odatiy hol hisoblanadi. Ba’zi tadqiqotchilar maxsus soha terminologiyasini o‘z ichiga oluvchi birliklar, signal, raqam, buyruqlar, o‘lchov birliklari va

boshqa shunga o‘xshash elementlar sifatida ta’riflaydilar (6). Shuningdek, S. V. Grinev-Grinevich terminologiyani “ma’lum bir bilim sohasida qo‘llaniladigan terminlar to‘plami” deya ta’riflaydi. Uning fikriga ko‘ra, har bir bilim sohasining terminologiyasi professional bilimlarning tushunchaviy aloqalari asosida shakllanadi (2).

Yuqorida keltirilgan nazariy fikrlarga asoslangan holda shuni aytamizki, sohaga yo‘naltirilgan chet tili asosan soha va kasb doirasidagi terminlardan akademik va maqsadli foydalanishini nazarda tutgan holda til o‘rganuvchilarining ehtiyoji, qiziqishlari, bilim darajasini hisobga olgan holda o‘qitiladi. Muayyan maqsadlarga mo‘ljallangan til doimo o‘zining terminologiyasiga nisbatan kengroq, ya’ni o‘ziga xos lingvistik va ekstralolingvistik xususiyatga ega desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Y.I.Golonova fikricha, semantika nuqtai nazaridan, ESP terminologik tizimlar faoliyatining asosiy sohasi bo‘lib, ma‘lum bir sohaning mantiqiy-konseptual modeliga tayanadi. ESP maxsus kognitiv-kommunikativ makon bo‘lib, “har bir makonning asosi muhim tushunchalar, toifalar va pastki kategoriylar majmuini tashkil etadi”, terminlar esa soha tushunchalari va konseptual yo‘nalishning verbalizatsiyasi uchun asosiy vosita hisoblanadi (1).

Maxsus sohaga yo‘naltirilgan tillar tuli xil yozma va og‘zaki matnlarda ishlatiladi. O‘tgan asrning so‘nggi yillarda rivojlangan terminologiyani o‘rganishga qaratilgan matnli yondashuv, maxsus quyi tillar o‘rtasidagi leksik va sintaktik farqlarga urg‘u berilgan. F.Zimmmer o‘zining maqolasida shu mavzuga oid sport matnlarining funksional va sintaktik xususiyatlarini o‘rganib chiqadi (8). Bundan tashqari, V.M.Leychik matnlar terminlarni yaratish, terminlarni aniqlash va terminlarni qo‘llashga qaratilgan bo‘ladi deb tasniflaydi (5).

Sohaga yo‘naltirilgan til har xil nutqiy vaziyatlarda faol foydalaniladi. Yuqorida berilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, terminologiya ilmiy tadqiqotning asosiy mavzusidir. Maxsus tildan foydalanishni aniq bir soha ko‘rinishida tasavvur qilish mumkin bo‘lib, ushbu soha markazida bir soha mutaxassislari o‘rtasida mavjud bo‘lgan akademik yoki kasbiy muloqot, markaz yonida - norasmiy soha bilan bog‘liq bo‘lmagan muloqot, chetga yaqinroq joyda - mutaxassislar va nomuxtassislar o‘rtasidagi muloqot, eng chetda esa nomuxtassislarning o‘zaro muloqoti turadi. ESPdan foydalanib, muloqotni bunday alohida va guruhlashtirilgan vaziyatlar kesimida o‘rganish nafaqat ba’zi maxsus birliklarning qo‘llanilish xususiyatlarini kuzatish imkonini beradi, balki terminologik tahlilni yangi, kognitiv-diskursiv darajaga ham ko‘taradi.

Soha doirasidagi terminlar to‘g‘risida tilshunoslarning bir qancha ta’riflari mavjud. “Termin” so‘zining ta’riflariga asoslanib, “terminologiya” tushunchasini ajratib ko‘rsatish mumkin. Terminologiya – bu ma‘lum bir bilim sohasining yoki kasbning terminlari to‘plami hamda terminlarning shakllanishi, tarkibi va funksiyalarini o‘rganadigan fandir. Biz, olimlar tomonidan ajratib ko‘rsatilgan boshqa ta’riflarni ham ko‘rib chiqishni lozim deb bildik, chunki bir qancha lingvistlar terminologiya tushunchasining asosiy xususiyatlari orasida sistemalilikni aytib o‘tganlar. V.N.Yarsevaning nazarida, har bir ilmiy sohaning terminologiyasi bu faqat terminlar ro‘yxati emas, balki o‘zaro bog‘langan va ma’no kategoriylariga ajratilgan

tushunchalar tizimi, ya’ni semiologik tizimdir. U shuningdek, terminologiya tizimining til rivojlanishi va o‘rganilishi jarayonida qanday shakllanib borishini va milliy tillashuv an’analarini qanday aks ettirishini ham ta’kidlaydi (7).

Yuqoridagi nazariy fikrlarga tayangan holda aytamizki, terminlarning o‘ziga xos lingvistik, semantik, strukturaviy funksiyalari mavjud.

XULOSA

Maqola “Tilshunoslikda sport terminologik birliklarining nazariy metodologik asoslari” xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida sport terminologiyasining o‘rni va ahamiyatini keng ko‘lamda yoritadi. Muallif, terminlarning shakllanishi va ularning ilmiy aloqalarda qo‘llanilishi zarurligini ta’kidlab, sport sohasidagi terminologiyaning o‘ziga xos lingvistik, semantik va strukturaviy funksiyalarini tahlil qiladi.

Maqolada, kasbga yo‘naltirilgan tillar (ESP) orqali sport terminologiyasining rivojlanishi va uni o‘rganishning muhimliliği ko‘rsatiladi. Shuningdek, terminologiyaning sistemaliligi va uning zamonaviy bilim sohalaridagi roli hamda terminlarning o‘zaro aloqalari haqida fikrlar keltiriladi. Natijada, maqola sport terminologiyasini o‘rganish uchun yangi ilmiy istiqbollarni ochib beradi va bu sohadagi tadqiqotlarning rivojlanishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Голованова, Е.И. Введение в когнитивное терминоведение : учеб. пособие / Е.И. Голованова. – М.: ФЛИНТА: Наука, 2014. – 224 с.
2. Гринев-Гриневич, С. В. Терминоведение : учебное пособие для вузов / С. В. Гринев-Гриневич. – Москва: Издательский центр «Академия», 2008. 9р. – 303 с. – ISBN 978-5-7695-4951-9.
3. Hoffmann, L. Kommunikationsmittel Fachsprache / L. Hoffmann. – Berlin: Sammlung Akademie-Verlag. 1976. – 318 S.
4. Комарова, А. И. Язык для специальных целей: содержание понятия / А. И. Комарова // Вестн. Моск. ун-та. Серия 19: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 1998. – № 1. – С. 70–82.
5. Лейчик, В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура / В.М. Лейчик. – М.: ЛКИ, 2007. 31р. – 256 с.
6. Суперанская, А.В., Подольская, Н.В., Васильева, Н.В. Общая терминология : Терминологическая деятельность / А.В. Суперанская, Н.В. Подольская, Н.В. Васильева. – М. : ЛКИ, 2005. – 288 с.
7. Ярцева, В. Н. Большой энциклопедический словарь. Языкоzнание: словарь / В. Н. Ярцева. – Москва : Научное издательство «Большая Российская энциклопедия», 1990. – 687 с. – ISBN 5-85270-307-9.
8. Зиммлер Ф. Функциональные и синтаксические особенности спортивных текстов / Ф. Зиммлер // Языковые единицы в речевой коммуникации: межвузовский сборник. – Л., 1991. – С. 93–104.